
ISSN: 3060-4613

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№11(1)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar böyiça)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport maşğulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqiçlari böyiça)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgaça ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGAÇA VA MAKTAB TA'LİMİ

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslaşgan ilmiy jurnal

MAKTABGAÇA VA MAKTAB TA'LİMİ

Elektron naşr. 180 sahifa,
2-oktyabr, 2026-yil.

BOŞ MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOŞ MUHARRIR ÖRINBOSARI:
Aşurov Ramzidin Ramazonoviç – Psixologiya fanlari böyiça falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGAŞI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Şoumarov Ğ.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirğizboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Şaripov Ş.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Şermuhammadov B.Ş. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qöldoşev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozoğiston)
Rejep Özyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Ça – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Ş. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi Özbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM boş muharriri, Özbekiston Respublikasida xizmat körsatgan jurnalist, filologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD), dotsent
Ğafurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Şomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD)
Nematov Ş.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yiça falsafa doktori (PhD)
Yuldaşeva F.I. – pedagogika fanlari böyiça falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldaşeva D.B. – filologiya fanlari böyiça falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toşkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qaşqadaryo viloyati Maktabgaça va maktab ta'limi boşqarmasi boşliğining birinçi örinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bölimining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor öğli – Pedagogika fanlari böyiça falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va işbilarmon" MÇJ
Hamkorlarimiz: Özbekiston Respublikasi Ta'lim va ilm-fan vazirligi, Özbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Aşurov Ramzidin Ramazonoviç – Doctor of Philosophy (PhD) in Psyçology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Şoumarov Ğ. B. – Doctor of Psyçological Sciences, Academician
Qirğizboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Persçool and Sçool Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Şaripov Ş.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Şermuhammadov B.Ş. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoşev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psyçological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psyçological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep Özyurek – Doctor of Psyçological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Ça – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psyçological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Ş. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Çief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi Özbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Şomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psyçological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psyçological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Ş.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Teçnical Sciences
Yuldaşeva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldaşeva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Taşkent State University of Economics
Aşurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psyçology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Presçool and Sçool Education of the Kaşkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researçer of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgaça va maktab ta'limi" jurnali Özbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni çop etiş uçun milliy ilmiy naşrlar röyxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari böyiça: OAK Kengaşi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

• Ekspert kengaşi (29.10.2024-y., №10)

• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari böyiça: Toşkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

• Ekspert kengaşi (25.05.2025-y., №10)

• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgaça va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

Özbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi böyiça röyxatdan ötkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA

Ta'lim jarayonida deontologik tamoyillar asosida nizolarni boşqariş 10
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna

Sun'iy intellekt asosida maktab öquvçilarining matematik xatolarini diagnostika qiliş va individual tavsiyalar şakllantirişning gibrid adaptiv modeli 15
Abdullayeva Nazokat Isayevna, Abdurazzoqova Zebuniso Tolmas qizi

Harbiy xizmatçilarning pedagogik mahoratini oşirişning ilmiy-metodik asoslari 21
Yadgarov Ravşan Ergaşeviç

Inklyuziv ta'limda logopedik texnologiyalardan foydalaniş metodikasi 27
Ikramova Dilafruz Furqat qizi, Ilhomova Malikaxon Dilşod qizi

Faoliyat markazlari vositasida maktabgaça yoşdagi bolalarning raqamli savodxonligini şakllantiriş metodikasi 30
Jo'rayeva Gulira'no Nazirjon qizi

Bölajak tasviriy san'at öqituvçilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirişda an'anaviy naqqoşlik san'atining pedagogik imkoniyatlari 36
Rözmetov Quvondiq Şanazaroviç

Pedagogik hamkorlik asosida ösmir yoşdagi öquvçilarda ijtimoiy voqelikka sezgirlikni tarbiyalaş mexanizmlari 42
Bazarova Gulnoza Ziyodulla qizi

Talabalarning ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini jismoniy madaniyat vositasida rivojlantiriş metodikasini takomillaştiriş 47
Imomov Asliddin Abdurazoqoviç

Harakatli öyinlar yordamida boşlanğiç sinf öquvçilarining harakat faolligini oşiriş usullari 51
Ernazarova Ziyoda Erkin qizi

Sun'iy intellektning inson fikrlaş qobiliyatiga ta'siri: intellektual rivojlaniş uçun imkoniyatlar va tafakkur zaiflaşuvi xavfi 55
Tölaganov Abdumalik Abdiraximoviç

Jadidçilik harakatining vujudga kelişining ijtimoiy-tarixiy şart-şaroitlari 60
Nişonov Muhammad Bahodir öğli, Pulatov Şerdor Nematjonoviç

Maktabgaça ta'lim taşkilotlari direktorlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirişning nazariy-metodologik asoslari 66
A'zamova Malohat Nadjimovna

Söz yasalişi, morfologiya va sintaksisning özига xos xususiyatlari 70
Bobojanov Şaripboy Xudoşukiroviç

Inklyuziv ta'limda diskriminatsiyani oldini oliş va ularni psixologik qöllab quvvatlaş tamoyillari 74
Bozorova Muxlisa

Neyro logopediya va biometriya 78
Foiqova Diyora Anvar qizi

Bölajak öqituvçilarning metakognitiv faoliyatini rivojlantirişda refleksiv topşiriqlardan foydalaniş 83
Ibrohimova Şahlo Umarali qizi

3–4-sinf öquvçilarining badiiy asarlar öqişga qiziqişini oşirişning metod, şakl va vositalari 88
Rasulova Zohida Sindorovna

Raqamli ta'lim muhitida kasbiy-refleksiv kompetensiyalarni rivojlantirişning metodik tizimini integratsiyalaş 92
Talabova Dilrabo Tolibova

Informatika va uni öqitiş metodikasi fanini öqitişda adaptiv öquv dasturlari va virtual laboratoriyalardan foydalanişning metodik tizimi 98
Xomidov Zohidjon Adhamjon öğli

Развитие профессиональной компетентности будущих педагогов в условиях цифровизации образования 104
Шаланков Константин Константинович

Pedagogik loyihalaştiriş orqali öquvçilarning şaxsiy va ijtimoiy rivojlanişini ta'minlaş 109
Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyeviç, Nazarova Nilufar Ismailovna

Dual ta'lim va refleksiv kompetensiya: pedagog kasbiy rivojlanişining yangi imkoniyatlari 113
S. R. Mansurova

Bixevioristik yondaşuv futurologik könikmalarni rivojlantiruvçi pedagogik va psixologik omil sifatida 118
Nişonov Nodir Alimjanoviç

Linguoculturological Features of the Concept "Respect And Esteem" in English and Uzbek Cultures 121
Naimova Dildora Kaxramonovna

Klasterli yondaşuv asosida bölajak pedagoglarning forsayt kompetensiyasini rivojlantiriş 125
Sotbarov Atabek Asilbek öğli

Nizolar paydo bölişining psixologik omillari 132
Olimov Saydullo Soxobjonoviç

Matematikadan milliy öquv dasturi loyihasi mazmuni haqida 141
Djumayev Mamanazar Irgaşeviç

Professional Requirements for Prospective English Language Teachers in Teaching Writing to Students With Special Educational Needs 149
D. X. Saydazimova

"Bilingval öquv muhiti" va "kreativ modellaştiriş" tuşunçalarining mazmuni va özaro boğliqligi 154
Djabbarova Feruza Odilovna

Texnologiya darslarida sun'iy intellekt vositalari orqali öquvçilarning ijodiy fikrlaş qobiliyatini rivojlantiriş imkoniyatlari 161
Raxmatov A'zam Aşur öğli, Tursunova Sevara Jamşid qizi

Autistik spektr buzilişli bolalarning luğat boyligini rivojlantiriş va muloqot ko'nikmalarini şakllantiriş metodikasi 165
Tuxtayeva Maxfirat

Maktabgaça tayyorlov yoşdagi bolalarga ekologik ta'lim-tarbiya berişda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalaniş yöllari, şakl va vositalari 170
O'razova Maqsuda Şuhratning qizi

Raqamli hamkorlikda refleksiya va muqobil yeçimlarni yaratişning metodik imkoniyatlari 175
Yusupov Muxtorbek Roximoviç

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

DUAL TA'LIM VA REFLEKSIV KOMPETENSIYA: PEDAGOG KASBIY RIVOJLANIŞINING YANGI IMKONIYATLARI

S. R. Mansurova
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi
Maktabgaça ta'limni muvofiqlaştiriş bölimi boşliği,
dots., p.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada dual ta'lim şaroitida pedagoglarning refleksiv kompetensiyasini rivojlantirişning nazariy-pedagogik asoslari, kasbiy rivojlanişdagi ahamiyati va amaliy imkoniyatlari yoritilgan. Refleksiya, pedagogik refleksiya va refleksiv kompetensiya tuşunçalarining mazmuni ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan. Dual ta'limning nazariy tayyorgarlik bilan real kasbiy faoliyatni uyğunlaştiriş imkoniyatlari oçib berilib, pedagoglarning refleksiv kompetensiyasini rivojlantirişga yönaltirilgan beş bosqiçli jarayon taklif etilgan. Şuningdek, mentorlik faoliyati, refleksiv kundalik, öz-özini baholaş va pedagogik faoliyatni qayta taşkil etişning kasbiy rivojlanişdagi örni asoslangan. Tadqiqot natijalari dual ta'lim jarayonida refleksiv yondaşuvni tizimli taşkil etiş böyiça nazariy-metodik tavsiyalar işlab çiqişga xizmat qiladi.

Kalit sözlar: dual ta'lim, refleksiya, pedagogik refleksiya, refleksiv kompetensiya, kasbiy rivojlaniş, mentorlik, pedagogik amaliyot, öz-özini baholaş, kasbiy kompetentlik.

Abstract: This article examines the theoretical and pedagogical foundations of developing teaçers' reflective competence in dual education and explores its significance for professional development. The concepts of reflection, pedagogical reflection, and reflective competence are analysed with reference to sçolarly literature. The article discusses how dual education can integrate theoretical preparation with authentic professional practice and proposes a five-stage process for developing reflective competence: observation, reflective dialogue with a mentor, independent analysis, correction, and reapplication of improved practices. The roles of mentoring, reflective journals, self-assessment, and continuous professional improvement are also discussed. The findings provide a theoretical and methodological basis for integrating reflective practice into dual teaçer education.

Key words: dual education, reflection, pedagogical reflection, reflective competence, professional development, mentoring, teaçing practice, self-assessment.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретико-педагогические основы развития рефлексивной компетентности педагогов в условиях дуального образования, её значение и практические возможности для профессионального развития. На основе научных источников анализируется содержание понятий рефлексии, педагогической рефлексии и рефлексивной компетентности. Раскрываются возможности интеграции теоретической подготовки и реальной профессиональной деятельности в дуальном образовании. Предлагается пятиэтапный процесс развития рефлексивной компетентности педагогов, включающий наблюдение, рефлексивное взаимодействие с наставником, самостоятельный анализ, коррекцию и повторное применение усовершенствованных способов деятельности. Обосновывается значение наставничества, рефлексивного дневника и самооценки в профессиональном развитии педагогов.

Ключевые слова: дуальное образование, рефлексия, педагогическая рефлексия, рефлексивная компетентность, профессиональное развитие, наставничество, педагогическая практика, самооценка.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlaş jarayonining samaradorligi nafaqat nazariy bilimlarni özlaştiriş, balki ularni real pedagogik vaziyatlarda qöllaş, mustaqil qaror qabul qiliş va öz faoliyatini muntazam takomillaştiriş qobiliyatiga ham boğliq. Ayniqsa, maktabgaça ta'lim tizimida bolalarning yoş va individual xususiyatlarini hisobga oliş, ta'lim-tarbiya jarayonini moslaşuvçan taşkil etiş hamda kutilmagan pedagogik vaziyatlarga oqilona munosabat bildiriş pedagogdan yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlikni talab qiladi.

Mazkur vazifalarni hal etişda dual ta'lim muhim imkoniyatlarni yaratadi. Dual ta'lim nazariy tayyorgarlikni bevosita kasbiy faoliyat bilan uyğunlaştirişga asoslangan bölib, ta'lim oluvçiga öz bilimlarini amaliyotda sinaş,

kasbiy tajriba orttiriş va faoliyat jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal etişni örganiş imkonini beradi. Özbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 24-iyundagi "Maktabgaça ta'lim yönalişida xalqaro tajriba asosida bakalavrlar tayyorlaş tizimini joriy etiş töğrisida"gi 321-son[1] qarorida, jumladan, dual ta'lim şaklida kadrlar tayyorlaşni taşkil etiş belgilangan [1].

Biroq kasbiy faoliyatda iştirok etişning özi pedagogning professional rivojlanişini töliq ta'minlamaydi. Amaliy tajriba pedagog tomonidan anglanmasa, tahlil qilinmasa va undan tegişli xulosalar çiqarilmasa, faoliyatdagi ayrim xatolar takrorlanişi mumkin. Şu sababli kasbiy tajribani ongli ravişda örganiş, pedagogik qarorlarning sabab va oqibatlarini aniqlaş hamda faoliyatni takomillaştirişga xizmat qiluvçi refleksiv kompetensiyani rivojlantiriş alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi - dual ta'lim şaroitida pedagoglarning refleksiv kompetensiyasini rivojlantirişning nazariy-pedagogik asoslarini tahlil qiliş hamda uşbu jarayonni taşkil etişning bosqiçma-bosqiç metodik yondaşuvini işlab çiqiş.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- refleksiya va refleksiv kompetensiya tuşunçalarining mazmunini ilmiy manbalar asosida tahlil qiliş;
- refleksiv kompetensiyaning pedagog kasbiy rivojlanişidagi ahamiyatini asoslaş;
- dual ta'lim şaroitida refleksiv kompetensiyani rivojlantiriş imkoniyatlarini aniqlaş;
- mentorlik va mustaqil tahlilga asoslangan bosqiçli metodik yondaşuvni taklif etiş.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

D. Şonning refleksiv amaliyot haqidagi qaraşlarida mutaxassisning oldindan özlaştirilgan bilimlariga tayangan holda faoliyat yuritişi bilan birga, amaliy vaziyatning özida fikrlaşi, yuzaga kelgan holatni anglaşi va zarurat tuğilganda öz harakatlarini qayta körib çiqişi professional mahoratning muhim jihati sifatida talqin etiladi [2].

D. Boud, R. Kio va D. Uokerning ilmiy qaraşlarida tajriba va refleksiya örtasidagi boğliqlikka alohida e'tibor qaratilgan. Ularning yondaşuviga köra, tajribani anglaş, tahlil qiliş va undan tegişli xulosalar çiqariş orqali uning ta'limiy hamda rivojlantiruvçi imkoniyatlari kengayadi [3].

F. Korthagen va hammualliflarining tadqiqotlarida pedagoglarni tayyorlaş jarayonida nazariy bilimlar bilan amaliy tajribani özaro boğlaş masalasi alohida körib çiqilgan. Mazkur yondaşuv pedagogning kasbiy tayyorgarligida nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyğunlaştirişning ahamiyatini yoritadi [4].

Şundan kelib çiqib, dual ta'lim şaroitida pedagogning kasbiy rivojlanişini amaliy könikmalarni egallaş, uşbu könikmalarni anglaş, baholaş va takomillaştiriş jarayonlari bilan uzviy boğliq holda örganiş maqsadga muvofiq.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bölib, unda pedagogik refleksiya, tajribaga asoslangan ta'lim, kasbiy rivojlaniş va dual ta'lim masalalariga oid ilmiy manbalar hamda Özbekiston Respublikasining tegişli normativ-huquqiy hujjati örganildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalaniş nazarda tutildi:

1. **Nazariy tahlil** - refleksiya, refleksiv amaliyot va pedagogning kasbiy rivojlanişiga oid ilmiy qaraşlarni örganiş hamda umumlaştiriş uçun.
2. **Qiyosiy tahlil** - nazariy bilimlarni özlaştiriş, amaliy faoliyat va refleksiv tahlilning özaro munosabatini aniqlaş uçun.
3. **Tizimli yondaşuv** - refleksiv kompetensiyani özaro boğliq tarkibiy qismlardan taşkil topgan yaxlit kasbiy sifat sifatida körib çiqiş uçun.
4. **Modellaştiriş** - dual ta'lim şaroitida refleksiv kompetensiyani rivojlantirişning izçil bosqiçlarini belgilaş uçun.
5. **Umumlaştiriş** - nazariy tahlil natijalari asosida amaliy-metodik tavsiyalar işlab çiqiş uçun.

Tadqiqotning nazariy asosini D. Şonning refleksiv amaliyot konsepsiyasi, D. Boud, R. Kio va D. Uokerning tajribani örganiş orqali ta'lim olişga oid qaraşlari, F. Korthagen va hammualliflarning nazariya bilan amaliyotni özaro boğlaşga doir yondaşuvlari taşkil etadi [2; 3; 4].

Mazkur maqolada taklif etilayotgan bosqiçli yondaşuv nazariy tahlil natijasida işlab çiqilgan metodik taklif hisoblanadi. Uning amaliy samaradorligini yanada çuqurroq örganiş va ilmiy jihatdan asoslaş uçun kelgusida tajriba-sinov işlarini taşkil etiş nazarda tutiladi.

1 https://lex.uz/uz/docs/-8286944

TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy manbalar tahlili şuni körsatadiki, refleksiya insonning öz fikrlari, xatti-harakatlari, tajribasi va faoliyati natijalarini anglaş hamda tahlil qiliş jarayoni bilan boğliq. Pedagogik faoliyatda refleksiya ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni, metodlari va natijalarini qayta körib çiqiş, yuzaga kelgan vaziyatlarning sabablarini aniqlaş hamda keyingi faoliyat uçun asosli qarorlar işlab çiqişda namoyon böladi.

Bu yondaşuv pedagogik faoliyat uçun ham dolzarbdir. Çunki pedagog har bir bolalar guruhi, maşğulot va ta'limiy vaziyatda turli ehtiyojlar, qiziqişlar va özига xos pedagogik vaziyatlarga duç keladi. Masalan, maktabgaça ta'lim taşkilotida pedagog rejalaştirgan maşğulot davomida bolalarning bir qismi topşiriqni muvaffaqiyatli bajardi, boşqalari esa qöşimça pedagogik kömakka ehtiyoj sezdi. Bunday vaziyatda refleksiv yondaşuv pedagogga natijani qayd etiş bilan birga, topşiriqning murakkabligi, tuşuntiriş usuli, tanlangan metod va bolalarning individual xususiyatlari örtasidagi munosabatni tahlil qiliş imkonini beradi.

Demak, pedagogning kasbiy tajribasi refleksiv tahlil orqali yangi bilim, xulosa va takomillaştirilgan faoliyat usullariga aylanişi mumkin. Mazkur maqolada "refleksiv kompetensiya" pedagogning öz kasbiy faoliyatini anglaş, tahlil qiliş, baholaş, faoliyat natijalarining sabablarini aniqlaş va olingan xulosalar asosida keyingi pedagogik faoliyatini takomillaştirişga yönaltirilgan integrativ kasbiy qobiliyati sifatida talqin etiladi. Uşbu ta'rif refleksiv kompetensiyaning öz faoliyati haqida fikr yuritiş bilan birga, amaliy takomillaştirişga ham yönaltirilganini körsatadi. Uning amaliy ahamiyati tahlil natijalarini keyingi faoliyatda qöllaş, pedagogik qarorlarni takomillaştiriş va kasbiy rivojlanişni davom ettirişda namoyon böladi.

Dual ta'limning asosiy imkoniyati nazariy tayyorgarlikni real kasbiy faoliyat bilan boğlaşdan iborat. Dual ta'lim şaroitida pedagog oliy ta'lim taşkilotida egallagan bilimlarini kasbiy faoliyatda sinab köradi. Amaliyot davomida u pedagogik vaziyatlarni kuzatadi, bolalar bilan muloqot qiladi, maşğulotlarni rejalaştiradi va amalga oşiradi, şuningdek, turli pedagogik vaziyatlarga mos yeçimlarni izlaydi. Bu jarayonning rivojlantiruvçi imkoniyatlari talabaning öz faoliyatini tizimli tahlil qilişi orqali yanada kengayadi.

Mazkur munosabatni quyidagi ketma-ketlikda ifodalaş mumkin:

Nazariy bilim → amaliy faoliyat → tajribani tahlil qiliş → xulosa çiqariş → faoliyatni takomillaştiriş → yangi tajriba.

Uşbu ketma-ketlikda refleksiya nazariya va amaliyot örtasidagi boğlovçi mexanizm sifatida namoyon böladi. U pedagogga öz bilimlarining amaliy ahamiyatini anglaş, faoliyatidagi yutuqlar va rivojlantiriş imkoniyatlarini aniqlaş hamda yangi yeçimlarni sinab köriş imkonini beradi. Dual ta'lim jarayonida refleksiv kompetensiyani rivojlantiriş uçun oliy ta'lim taşkiloti, amaliyot bazasi va talabaga biriktirilgan mentorning faoliyatini özaro muvofiqlaştiriş muhimdir. Mentor talabaning faoliyatini kuzatişi, tahliliy savollar orqali mustaqil fikrlaşiga kömaklaşişi va takomillaştiriş yöllarini izlaşga yönaltirişi mumkin. Bunda mentorning vazifasi talabaga tayyor yeçimlarni taqdim etiş bilan birga, uning mustaqil tahlil qiliş va xulosa çiqariş könikmalarini rivojlantirişga yönaltirilişi maqsadga muvofiq. U talabaning pedagogik vaziyatga mustaqil baho berişi, qarorlarining asoslarini tuşuntirişi va muqobil yeçimlarni işlab çiqişiga şaroit yaratişi lozim.

Nazariy manbalar tahlili va dual ta'limning özига xos xususiyatlaridan kelib çiqib, pedagoglarning refleksiv kompetensiyasini rivojlantiriş uçun beş bosqiçli metodik yondaşuv taklif etiladi.

1-bosqiç. **Pedagogik faoliyatni kuzatiş va anglaş.** Bu bosqiçda talaba pedagogik jarayonni kuzatadi yoki mentor kömagida maşğulotlarni mustaqil taşkil etadi. Ta'limiy maqsad, foydalanilgan metodlar, bolalar bilan muloqot, bolalarning faolligi va erişilgan natijalarga e'tibor qaratiladi. Asosiy vazifa esa pedagogik faoliyatni dalillarga tayangan holda anglaş va tahlil uçun zarur ma'lumotlarni töplaş.

2-bosqiç. **Refleksiv mulohaza va mentor bilan muloqot.** Talaba amalga oşirilgan faoliyatni mentor bilan muhokama qiladi. Qaysi qarorlar samarali bölgani, qaysi vaziyatlarda qöşimça pedagogik yondaşuvlar zarur bölgani va ularning ehtimoliy sabablari aniqlanadi. Bu jarayonda "Belgilangan maqsadga erişildimi?", "Qaysi metod bolalarning faolligini oşirdi?", "Boşqa qanday yeçimlarni qöllaş mumkin edi?" kabi savollardan foydalaniş mumkin.

3-bosqiç. **Mustaqil tahlil va öz-özini baholaş.** Talaba mentor bilan muhokama qilingan fikrlarni hisobga olgan holda öz faoliyatini mustaqil tahlil qiladi. Erişilgan natijalarni rejalaştirilgan maqsadlar bilan taqqoslaydi, kuçli tomonlarini va yanada rivojlantiriş mumkin bölgan jihatlarni belgilaydi. Bu bosqiçda refleksiv kundalik, öz-özini baholaş varaqasi va pedagogik vaziyatlarni tahlil qiliş topşiriqlaridan foydalaniş mumkin.

4-bosqiç. **Faoliyatni korreksiyalaş va takomillaştiriş.** Talaba tahlil natijalariga asoslanib, keyingi faoliyat uçun aniq takomillaştiriş rejasini işlab çiqadi. Masalan, topşiriqlarni bolalarning individual imkoniyatlariga moslaştiriş, tuşuntiriş usulini özgartiriş, muloqot şakllarini takomillaştiriş yoki boşqa metodlardan foydalanişni rejalaştiradi. Mazkur bosqiçning muhim şarti - faoliyatni rivojlantirişga oid xulosalarni aniq amaliy qadamlar bilan mustahkamlaşdir.

5-bosqiç. **Takomillaştirilgan faoliyatni qayta amaliyotda sinab köriş.** Talaba işlab çiqqan yeçimlarini keyingi maşğulot yoki pedagogik vaziyatda qöllaydi. Yangi usulning natijalari kuzatiladi va avvalgi natijalar bilan taqqoslanadi. Zarurat tuğilganda tahlil va takomillaştiriş jarayoni qayta davom ettiriladi. Şunday qilib, refleksiv kompetensiyani rivojlantiriş muntazam tahlil va takomillaştirişga asoslangan holda davom ettiriladi. U kasbiy faoliyatga muntazam tatbiq etiladigan, natijalari qayta körib çiqiladigan uzluksiz jarayon sifatida taşkil etiladi.

Taklif etilgan bosqiçli yondaşuvning amaliy natijadorligini oşirişda bir qator vositalar va pedagogik şart-şaroitlar muhim ahamiyatga ega.

Birinçidan, "refleksiv kundalik" talabaning kundalik kasbiy tajribasini tizimli qayd etişiga yordam beradi. Unda bajarilgan faoliyat, kuzatilgan vaziyat, takomillaştirişga ehtiyoj sezilgan jihatlar, çiqarilgan xulosa va keyingi faoliyat uçun rejalaştirilgan özgarişlar aks ettirilişi mumkin.

Ikkinçidan, "mentorning tahliliy savollari va qayta aloqasi" talabaning vaziyatni turli nuqtayi nazardan körib çiqişiga yordam beradi. Mentor talabaning mustaqil xulosa çiqarişiga kömaklaşişi maqsadga muvofiq.

Uçinçidan, "öz-özini baholaş vositalari" talabaning öz faoliyatiga nisbatan mas'uliyatli munosabatini şakllantirişga xizmat qiladi. Bunda baholaş mezonlari oldindan tuşunarli bölişi, şuningdek, talaba öz xulosalarini aniq kuzatuv va dalillar bilan asoslay olişi zarur.

Törtinçidan, "pedagogik vaziyatlar va keyslar tahlili" talabaning pedagogik vaziyatlarni anglaş, sabablarni izlaş, muqobil yeçimlarni soliştiriş va qaror qabul qiliş qobiliyatini rivojlantiradi.

Beşinçidan, "qöllab-quvvatlovçi refleksiv muhit" yaratiş muhim. Talaba öz faoliyatida takomillaştirişga ehtiyoj sezilgan jihatlarni kasbiy ösiş, tahlil qiliş va yangi tajriba orttiriş imkoniyati sifatida qabul qilişi maqsadga muvofiq. Bu, öz navbatida, mentor va talaba örtasidagi işonçli hamkorlikni talab etadi. Mazkur vositalar özaro uyğunlikda qöllanilganda refleksiv faoliyatni tizimli muhokama va izçil kasbiy rivojlaniş jarayoniga aylantiriş imkoniyati kengayadi.

Tadqiqotning nazariy tahlili dual ta'lim va refleksiv kompetensiya örtasidagi boğliqlik nazariy bilimlarni amaliyotda qöllaş, kasbiy tajribani anglaş, tahlil qiliş va keyingi faoliyatda qayta qöllaş jarayonlarining özaro uyğunligi orqali namoyon bölişini körsatadi. Uşbu boğliqlik asosida refleksiv kompetensiyani rivojlantirişning muhim metodik tamoyillarini ajratiş mumkin. Bular - tajribaga asoslaniş, muntazam tahlil, mentorlik kömagi, mustaqil qaror qabul qiliş va takomillaştirilgan faoliyatni qayta sinab körişdir.

Taklif etilgan beş bosqiçli yondaşuvning özига xos jihati şundaki, unda refleksiya pedagogik faoliyatning barça bosqiçlariga uyğunlaştirilgan rivojlantiruvçi mexanizm sifatida qaraladi. Talaba dastlab vaziyatni kuzatadi, söng uni muhokama qiladi, mustaqil xulosa çiqaradi, faoliyatini takomillaştiradi va yangi yeçimni qayta sinab köradi. Bunda mentorlik kasbiy fikrlaşni rivojlantiruvçi hamkorlik şaklida namoyon böladi. Mentor talabaning mustaqil qaror qabul qilişini qöllab-quvvatlaydi, uning vaziyatni anglaş va asoslangan qaror işlab çiqiş qobiliyatini rivojlantirişga kömaklaşadi.

Şu bilan birga, mazkur yondaşuvni amaliyotga samarali joriy etişda taşkiliy va metodik şart-şaroitlarni hisobga oliş muhimdir. Jumladan, mentorlarning refleksiv tahlilni taşkil etiş böyiça metodik tayyorgarligi, oliy ta'lim taşkiloti va amaliyot bazasi örtasidagi hamkorlik, talabaning tahlil uçun yetarli vaqtga ega bölişi hamda faoliyat natijalarini kuzatiş mezonlarining aniqligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqolada taklif etilgan yondaşuv nazariy-metodik asosga ega bölib, uning samaradorligi, refleksiv kompetensiya komponentlaridagi özgarişlar va turli amaliyot şaroitlarida qöllaş imkoniyatlarini yanada çuqurroq örganiş uçun kelgusida empirik tadqiqotlar, diagnostik baholaş va tajriba-sinov işlarini amalga oşiriş maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Nazariy tahlil natijalari şuni körsatadiki, refleksiv kompetensiya pedagogning öz kasbiy faoliyatini anglaş, tahlil qiliş, baholaş va takomillaştirişga xizmat qiluvçi muhim kasbiy sifatdir. Dual ta'lim nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyğunlaştiriş orqali uşbu kompetensiyani rivojlantiriş uçun keng imkoniyatlar yaratadi.

Refleksiv kompetensiyani rivojlantirişda pedagogik faoliyatni kuzatiş, mentor bilan muloqot, mustaqil tahlil, faoliyatni korreksiyalaş va takomillaştirilgan yeçimlarni amaliyotda sinab köriş muhim ahamiyatga ega. Bunda refleksiv kundalik, öz-özini baholaş va mentorlik kömagidan foydalaniş talabaning mustaqil fikrlaşi hamda kasbiy mas'uliyatini rivojlantirişga xizmat qiladi.

Şunday qilib, dual ta'lim jarayonida refleksiv yondaşuvni tizimli taşkil etiş öz faoliyatini tahlil qila oladigan, mustaqil qaror qabul qiladigan va uzluksiz kasbiy rivojlanişga intiladigan pedagoglarni tayyorlaşning istiqbolli yönalişidir. Taklif etilgan metodik yondaşuvning samaradorligini aniqlaş kelgusidagi empirik tadqiqotlarning muhim vazifasi hisoblanadi.

Dual ta'lim şaroitida pedagoglarning refleksiv kompetensiyasini rivojlantiriş yuzasidan quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Pedagogik amaliyot jarayonida talabalarning refleksiv kundalik yuritişini tizimli taşkil etiş hamda unda pedagogik faoliyat natijalari, kuzatuvlar va takomillaştirişga yönaltirilgan xulosalarni muntazam aks ettiriş.
2. Mentorlik faoliyatida refleksiv suhbatlar va tahliliy savollardan muntazam foydalaniş orqali talabalarning pedagogik vaziyatlarni mustaqil tahlil qiliş va asoslangan qarorlar qabul qiliş könikmalarini rivojlantiriş.
3. Talabalarning refleksiv kompetensiyasini baholaş uçun mustaqil tahlil qiliş, öz-özini baholaş, pedagogik qarorlarni asoslaş va faoliyatni takomillaştirişga yönaltirilgan mezon hamda indikatorlarni işlab çiqiş.
4. Taklif etilgan beş bosqiçli metodik yondaşuvni dual ta'lim şaroitidagi pedagogik amaliyot jarayonida tajriba-sinovdan ötkaziş, uning natijadorligini diagnostik baholaş hamda olingan natijalar asosida metodik tavsiyalarni takomillaştiriş.

Foydalanilgan adabiyotlar röyxati:

1. Özbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 24-iyundagi "Maktabgaça ta'lim yönalişi böyiça xalqaro tajriba asosida bakalavrlar tayyorlaş tizimini joriy etiş töğrisida"gi 321-son qarori. https://lex.uz/uz/docs/-8286944
2. Sçön, D. A. (1983). The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. New York: Basic Books. 374 p.
3. Boud, D., Keogh, R., & Walker, D. (Eds.). (1985). Reflection: Turning Experience into Learning. London: Kogan Page. 170 p.
4. Korthagen, F. A. J. (2017). Inconvenient truths about teaçer learning: Towards professional development 3.0. Teaçers and Teaçing: Theory and Practice, 23(4), 387–405. https://doi.org/10.1080/13540602.2016.1211523
5. Mansurova, S. R. (2026). Dual ta'lim şaroitida maktabgaça ta'lim taşkiloti pedagoglarining refleksiv kompetensiyasini rivojlantirişning pedagogik şart-şaroitlari. Journal of Early Çildhood, Primary and Special Education, 1(1), 3–14. https://doi.org/10.5281/zenodo.22076209

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar böyiça)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport maşğulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqiçlari böyiça)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgaça ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGAÇA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Aşurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovçi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №11(1)

© Materiallar köçirib bosilganda "Maktabgaça va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida körsatilişi şart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgaça va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan Özbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi böyiça röyxatdan ötkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toşkent şahar, Yunusobod tumani 19-mavze, 17-uy.